

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.11607849>

ABU ISO MUHAMMAD IBN ISO TERMIZIYNING MA'NAVIY MEROsi

Shomurotova Nilufar Davronbek qizi

Urganch davlat universiteti pedagogika fakulteti pedagogika va psixologiya
yo‘nalishi 212-guruh talabasi

Yangiboyev Sanjarbek

Urganch davlat pedagogika instituti 2 bosqich talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola orqali siz buyuk mutafakkir Abu Iso Muhammad Termiziyning hayot yo‘li va uning ma’naviy merosi haqida bilimga ega bo‘lasiz. Uning qanday oilada tavallud topgani va ilm-fan ravnaqi uchun qo‘sghan hissasini ko‘rib chiqasiz. Uning hadis ilmiga qiziqqani va musofirchilikda yurgan paytida ham bilim olishga bo‘lgan ishtiyoqi insonni yanada ilm olishga undaydi.

Kalit so‘z: Abu Iso Muhammad Termiziy, ilm-fan, tarix, hadislar, fazilatlar, aql-idrok, milliy qadriyatlar, ota-onal hurmati.

Kirish: Markaziy Osiyolik buyuk mutafakkirlardan biri – mashhur muhaddis Abu Iso Muhammad Termiziyyidir. Uning to‘liq ismi Abu Iso Muhammad ibn Savra ibn Muso ibn Dahhok Sullamiy Termiziyy bo‘lib, u 824-yilda Termizda, uncha badavlat bo‘lмаган oilada tavallud topdi. Uning yoshlik yillari Termiz shahrida o‘tib, dastlabki ma’lumotni ham shu shaharda olgan. Bolaligidan o‘ta ziyrakligi, yodlash qobiliyatining kuchliligi va noyob iqtidori bilan o‘z tengqurlaridan ajralib turgan, Termiziy turli fanlarni, ayniqsa, hadis ilmini alohida qiziqish bilan egallagan va bu boradagi o‘z bilimlarini muttasil oshirish uchun ko‘pgina Sharq mamlakatlarini ziyorat qilgan. Jumladan, u uzoq yillar Iroqda, Isfahon, Xuroson, Makka va Madinada yashagan. Ko‘p yillar davom etgan safarlari chog‘ida Termiziy ilm-fanning turli sohalaridan ilm al-qiroat, ilm al-bayon, fiqh, tarix, ayniqsa, o‘zi yoshligidan qiziqqan

hadis ilmidan o‘z davrining yirik olimlari mashhur muhaddislaridan ta’lim oladi. Uning ustozlaridan Imom Buxoriy, Imom Muslim, Imom Abu Davud, Qutayba ibn Sa’id, Is’hoq ibn Muso, Mahmud ibn G‘aylon va boshqa mashhur muhaddislarni ko‘rsatish mumkin. Manbalarda yozilishicha, hadislarni to‘plashda va o‘rganishda Termiziy har bir qulay fursatdan unumli foydalangan. U yo‘lda, safarda bo‘lganda ham yoki bir joyda muqim turganda ham o‘z ustozlaridan, uchratgan roviylaridan eshitgan hadislarni darhol yozib olib, ularni tartibli ravishda alohida-alohida qayd qilib borgan. O‘z davrining yetuk muhaddis olimi sifatida tanilgan Termiziy ko‘pdan-ko‘p shogirdlarga ustozlik qilgan. Musofirchilikdan qaytgan Termiziy o‘z yurtida yirik muhaddis olim sifatida shuhrat qozondi va ijodiy ish, shogirdlar tayyorlash bilan mashg‘ul bo‘ldi. U 892-yilda Termizdan uzoq bo‘lmagan Bug‘ qishlog‘ida vafot etadi va shu yerda dafn qilinadi. Termiziy yo‘lda, safarda bo‘lganda ham, yoki bir joyda muqim turganda ham ustozlaridan, uchratgan roviylardan eshitgan hadislarni yozib olar, ularni tartibli ravishda alohida-alohida qayd qilib borardi. 868-yil xorij safaridan o‘z yurtiga qaytgan Termiziy ilmiy-ijodiy ish, shogirdlar tayyorlash bilan mashg‘ul bo‘ldi va yirik muhaddis olim, imom sifatida shuhrat qozondi. Taqvodorlik, islom dini va o‘z obro‘siga gard yuqtirmaslikka intilish, dunyo molmatosi va boylikka beparvo qarash, oxiratning g‘amini yeish Termiziyning hayoti tarzi edi. Termiziyning shogirdlari uning ishlarini davom ettirdi. Ular ichida Makhul ibn alFadl, Muhammad ibn Mahmud Anbar, Hamod ibn Shokir, Abd ibn Muhammad Nasafiy, Haysam ibn Kulayb Shoshiy, Ahmad ibn Yusuf Nasafiy va boshqalarni ko‘rsatish mumkin. Imom at-Termiziy o‘z asarlarida inson tarbiyasining turli yo‘nalishlariga e’tibor qaratar ekan, jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ma’naviy asoslariga ham diqqatini qaratdi va ko‘plab falsafiy, huquqiy savollarga javob topa oldi. Imom at-Termiziy tarbiya yo‘nalishida milliy xususiyatlarni hisobga olgan holda hadislarni bayon etishda quyidagi jihatlarga e’tiborini qaratadi:

- ularni qo‘llashga ilmiy jihatdan yondashish;
- tarbiya vositasi sifatida foydalanishning yo‘llari va shakllarini izlash;

- bolalarmi insonparvarlik, vatanparvarlik, axloqiy-estetik va jismoniy ruhda tarbiyalash asosiy masala ekanligini doim yodda tutish kabi jihatlardir.

Shuningdek, Imom at-Termiziyning muhaddislik faoliyatini ilmiy jihatlari quyidagicha:

birinchidan, hadislarni o‘rganish o‘zbek xalqi an’analarining, diniy qarashlarining pedagogik xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi;

ikkinchidan, hadislarning g‘oyalarini ilmiy tahlil qilish va ob’ektiv baholash pedagogika tarixi, ya’ni uning asosiy qismi bo‘lgan etnopedagogika bo‘yicha nazariyalarning keyingi rivojiga yo‘l ochadi;

uchinchidan, hadislarni o‘rganish bo‘yicha tavsiya etiladigan materiallarning samarasi va sifati oshishiga xizmat qiladi.

Imom at-Termiziylar axloqiy muammolarni hal qilish bo‘yicha keng yoyilgan an’anaviy, etnik tushunchalarni rivojlantirdi. Uning fikricha, inson o‘z xatti - harakatlari va faoliyati bo‘yicha erkin bo‘lib, uning ijobjiy hamda salbiy tomonlari o‘sha odamning o‘ziga, atrofdagilarga bog‘liqdir. Insonning axloqiy qiyofasi ijtimoiy muhit bilan, uning taqdiri va boshqa xususiyatlari o‘z e’tiqodi bilan bog‘liqdir. Imom at-Termiziyning bu fikrlari chet davlatlari, xususan Yevropa davlatlaridagi ba’zi ta’limot asoschilarining fikrlaridan ancha ilgariroq aytilganligi o‘lkamizda ilm-fan taraqqiyotidan darak beradi. Tevarak-atrofdagilarning ta’siri ostida bir qancha kishilar yaxshi fazilatlarga ega bo‘lsalar, bir qanchalari yomon odatlarga o‘rganadilar. Mutafakkir yetuk inson shakllantirish g‘oyasini, ta’lim-tarbiya masalasini insonning yoshlik davridan boshlab qo‘lga olish zarurligini, bu uchun tarbiyani bolalarning yosh xususiyatlari bilan bog‘liq holda olib borishni, ularga yosh davrlariga mos keladigan tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatish zarur ekanligini ko‘p bor mushohada qilgan. Milliy qadriyatlarimizni ilm-fan va taraqqiyot yutuqlari bilan boyitib borish, milliy g‘oya hamda istiqlol mafkurasini tamoyillarini xalqimizning qalbi va ongiga singdirish, muqaddas dinimiz va tariximizni soxtalashtirish, ulardan salbiy maqsadlarda foydalanishga yo‘l qo‘ymaslik - bu tarbiya sohasidagi asosiy vazifamizdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. “Xorazm mutafakkirlarining pedagogik qarashlari “ fanidan o‘quv-uslubiy qo‘llanma
2. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil Al-Buxoriy “Xadis”(Al-jomi as-sahih) 1-tom. - T.:Qomuslar bosh tahririyyati, 1997
3. Uvatov U. Buyuk muhaddislar. T.: “O‘zbekiston Milliy entseklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti, 1998
4. Xodjaniyazov S.U.Xorazm mutafakkirlarining pedagogik qarashlari. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi – T.: MCHJ “Lesson Press” nashriyoti, 2021.
5. Sunani Termiziy, 1j., T., 1999; Shamoili Muhammadiya, T., 1991; Sahihi Termiziy, T., 1993.